

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 10 176,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,9 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,2 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>8 662,8</b>	<b>10 176,9</b>	<b>106,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 216,6	9 839,4	106,8
mahsulotlarga sof soliqlar	446,2	337,5	108,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>8 216,6</b>	<b>9 839,4</b>	<b>106,8</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 201,2	2 436,1	103,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 620,4	3 168,7	107,1
sanoat	1 895,7	2 310,5	106,4
qurilish	724,7	858,2	109,1
<b>xizmatlar</b>	<b>3 395,0</b>	<b>4 234,6</b>	<b>108,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	869,9	1 081,0	114,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	628,4	758,4	109,0
boshqa xizmat tarmoqlari	1 896,7	2 395,2	106,4



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 4 970,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,1 % ga yuqoridir.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	94,8	96,7
mahsulotlarga sof soliqlar	5,2	3,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>26,8</b>	<b>24,8</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>31,9</b>	<b>32,2</b>
sanoat	23,1	23,5
qurilish	8,8	8,7
<b>xizmatlar</b>	<b>41,3</b>	<b>43,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,6	11,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,6	7,7
boshqa xizmat tarmoqlari	23,1	24,3



2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 24,8 % ni, sanoat tarmog‘i 23,5 % ni, qurilish 8,7 % ni va xizmatlar sohasi 43,0 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jami ga nisbatan % da)

2023- yil

5,2 %



26,8 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

23,1 %

Sanoat

8,8 %

Qurilish

41,3 %

Xizmatlar

2024- yil

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

24,8 %

Sanoat

23,5 %

Qurilish

8,7 %

Xizmatlar

43,0 %

3,3 %




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,4 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – salbiy 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,5 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 1,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.) ga ko'paydi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 24,8 %), sanoatda – 106,4 % (23,5 %), qurilishda – 109,1 % (8,7 %), xizmatlar sohasida – 108,9 % ni (43,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,0 % (11,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,0 % (7,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,4 % dan (24,3 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 109,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 114,6 % va xizmatlar sohasida – 114,6 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 6 118,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 5 399,4 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 62,2 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 65,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2023- yil

5 399,4

65,7 %

2024- yil

6 118,6

62,2 %

